

Date: 23rd June-2026

YAPON MIFOLOGIYASIDA YARATILISH KONSEPTI: SHINTO DINI
KONTEKSTIDA TAHLIL

Qodirov Botirjon Xusan o'g'li

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: godirovbotirjon711@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada yapon mifologiyasining asosiy yaratilish afsonasi — Izanagi va Izanami timsolida Yaponiyaning ilohiy kelib chiqishi, Shinto e'tiqodidagi kosmogonik tasavvurlar, marosimiy tartib va o'limdan keyingi mavjudlik masalalari tahlil qilinadi. Harai marosimi va unda tug'ilgan ilohiy kuchlar orqali yapon xalqining diniy-ma'naviy dunyoqarashi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Izanagi, Izanami, Yapon mifologiyasi, Shinto dini, Harai marosimi, Kagutsuchi, Yomi olami, kosmogoniya, ilohiy tartib, poklanish falsafasi.

Yaratilish: Izanagi va Izanami — Yapon orollarining paydo bo'lishi

Yapon xalqining chuqur e'tiqodlari va madaniy-axloqiy hayotining asl mohiyatini o'zida jamlovchi yapon mifologiyasi asrlar davomida insonlarning bu davlatga bo'lgan qiziqishini oshishida o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Hikoyalar, xalqning og'zaki ijodi va chuqur kechinmalari, albatta, *Shinto*¹ dini bilan ham bog'liqdir. Bu ikki tushuncha bir biri bilan chambarchas bog'liq, va ikkisi bir-birini to'ldirib, biri ikkinchisini taqozo qiladi. Mifologiya bo'yicha Yaponiyaning yaralishi *Izanami*(伊邪那美命)² va *Izanagi*(伊邪那岐命)³ ning xudolar dunyosi bo'lgan muqaddas osmonlardan yerga tushishi bilan boshlanadi. Yer va Osmon yaratilishi bilanoq, eng yosh xudolar Izanami va Izanagi, boshqa osmon xudolarining amri bilan yerga tushiriladi. Ular birgalikda osmonlar va quruqlikni bog'lab turuvchi, suzuvchi ko'priq ustida turib, jannatning marvaridli nayzasini⁴ yerga qaratib qattiq aylantirishadi, toki nayzaning o'tkir tig'idan tomayotgan sho'r suv tomchilari birlashib, orol hosil qilgunga qadar. Shundan so'ng ular o'zlari yaratgan yerga tushadilar va shu yerdan qo'nim topadilar. Bu yerda ular ulkan saroy va bahaybat bir ustun quradilar. Ular o'zlarining tanalari tuzilishini ko'zdan kechirib chiqib, yerda nasl qoldirishga, yosh va qudratli xudolarga hayot ato qilishga ahd qiladilar va ustunni aylanib chiqib, qayta ko'rishib qolgan joylarida oila qurishni maqsad qiladilar. Vanihoyat, o'sha on kelganda,

¹ **Shintoizm** - (yaponcha shinto, aynan — Xudolar yo'li, Xudolar ta'limoti) — Yaponiyada tarqalgan dinlardan biri bo'lib, 6-7-asrlarda vujudga kelgan. Shintoizm asosida tabiatga va ajdodlar ruhiga e'tiqod yotadi.

² **Izanami** (イザナミ) — Yapon mifologiyasidagi muhim ma'budalardan biridir. U **yaratish va o'lim ma'budasi** sifatida tanilgan. Ismi 「伊邪那美命」 deb yoziladi va "chaqiruvchi ayol" degan ma'noni bildiradi.

³ **Izanagi** (イザナギ) — Yapon mifologiyasidagi eng muhim xudolardan biri bo'lib, u "yaratuvchi erkak iloh" sifatida tanilgan. U yaratish, muqaddas poklanish va hayotni davom ettiruvchi kuch beruvchi ma'bud hisoblanadi.

⁴ **Amenonuhoko** (天沼矛 / あめのぬぼこ) nomli ilohiy nayza.. Bu nom ko'pincha ingliz tilida poetik tarzda "**Heavenly Jeweled Spear**" deb tarjima qilinadi. U yapon yaratilish mifining eng muhim ramzlaridan biri hisoblanadi.

Date: 23rd June-2026



Izanami qiz bola bo'lishiga qaramasdan, Izanagini ko'rganida "Bunchalar kelishgan yigit..." deya so'z ochadi va unga sevgi izhor qiladi. Hech qancha vaqt o'tmasdan ular farzand ko'rishadi. Lekin, ular dunyoga keltirgan farzand tashqi ko'rinishidan zulukga o'xshardi va aynan shu sababli unga Hiruko(蛭子, ひるこ)⁵ deb ism berishadi. Shinto manbalarida bu ism Ebisu(恵比寿)⁶ deb yuritiladi va aynan u Shinto e'tiqodidagi "7 – Omad Xudolari"(七福神)⁷ ning birinchisi bo'lgan deb ishoniladi. Yangi ota-ona bu farzandlarini qayiqqa solib ummon bo'ylab oqizib yuborishadi. Ikkinchi farzandlari ham shunchaki ko'piklar uyumi sifatida yaralgani sababli, ular tushkunlikka tushadilar va Jannat xudolarining huzuriga maslahat istab boradilar. Odob-axloq doirasida, ayol kishining birinchi bo'lib xushomad qilishi noo'rin hisoblanib, qattiq qoralangani sababli, ilohiylikning vakili bo'lgan osmon xudolari Izanagi birinchi bo'lib muhabbatini izhor qilishi va qayta oila qurishga harakat qilishi kerakligini ta'kidlaydilar. Barcha maslahatlarga rioya qilib, qayta uchrashganlaridan keyin, Izanami va Izanagi ko'plab xudolar tug'ilishiga sababchi bo'ladilar. Ular shu asnoda Awajishima, Shikoku, Oki, Tsukushi (Kyushu), Iki, Tsu, Sado, Oyamoto va Yaponiyaning boshqa orollarini ham dunyoga keltiradilar. Mamlakat to'liq yaralib, o'z ko'rinishiga ega bo'lganidan keyin, Izanami mukammal holatdagi, kundalik ishlarga, dengiz va daryolarga, shamol, bo'ron va daraxtlarga, butazorlar, tog'lar, qayiqalar va donlarga homiy bo'lgan ilohlarga hayot baxsh eta boshlaydi.

Fojia: Olov xudosi Kagutsuchi va Izanaming o'limi

Afsuslar bo'lsinkim, keyingi tug'iladigan iloh – olov ma'budi *Kagutshuchi*⁸ (迦具土神 / カグツチ) ba'zi manbalarda *Homusubi* (火産霊神 yoki 火之炫毘古神)⁹ deb yuritiladi edi. U tug'ilar onidayoq onasining tanasini alanga ostida qoldirib, kulga aylantirdi. Olovlar shu qadar azobli ediki, Izanaming tanasi mayda bo'laklarga bo'linib ketar darajaga keldi va oxir-oqibat u o'liklar makoni bo'lgan *Yomi*(黄泉, よみ)¹⁰ ga ravona bo'ldi. Bu holatga guvoh bo'lgan Izanagi, dard va alam jazavasiga tushadi va shamshirini yalang'ochlab, Kagutsuchini 8 bo'lakka bo'lib tashlaydi (manbalarda keltirilishicha, hozirgi yaponiya hududidagi eng katta 8 ta vulqon aynan shu bo'laklardan yaralgan). Izanagining tanasi Izumo va Hoki orollarining o'rtasidagi Hiba tog'iga dafn qilinadi.

⁵ **Hiruko** — Yapon mifologiyasidagi qadimiy, afsonaviy bola. Uning nomi "Zuluk bola" yoki "Suyaksiz bola" degan ma'noga yaqin, va u asosan **Izanagi va Izanaming** birinchi farzandi sifatida tilga olinadi. Biroq bu bola **noto'g'ri rasmiy nikoh marosimi** sababli nogiron yoki nomukammal tug'ilgan.

⁶ **Ebisu** — Hirukoning ikkinchi ismi, keyinchalik (baxt, baliqchilik va savdo xudosi) sifatida **ijobiy obrazga aylantirilgan**.

⁷ **Shichi Fukujin** — **Yetti Omad Xudolari** deb ataladi. Ular baxt, boylik, sog'liq, donolik va uzoq umr timsoli bo'lib, odatda Yangi Yilda tasvirlar, talismanlar va ibodatlarda ko'p uchraydi.

⁸ **Kagutsuchi** — Yapon mifologiyasidagi **olov xudosi**, ko'pincha **yong'in, vayronagarchilik, va qayta tug'ilish** bilan bog'liq.

⁹ **Homusubi** — Yapon mifologiyasidagi **olovning ruhiy ilohi**, ba'zida **Kagutsuchi** bilan aynan bir xudo sifatida qoraladi, lekin ba'zi manbalarda ular **alohida mavjudotlar** deb tasvirlanadi.

¹⁰ **Yomi** — Yapon mifologiyasidagi **o'liklar dunyosi**, ya'ni **"narigi dunyo"** yoki **"ajdodlar olami"**. Yomi so'zining yozilishi 「黄泉」 — "sariq buloq" degan ma'noni anglatadi, bu esa qadim yaponlarda **o'limdan keyingi yerosti hayoti** haqida tasavvurni bildiradi.

Date: 23rd June-2026

Yomi olami: Izanagining o'liklar dunyosiga tushishi va ajralish

Vaqlar o'tishi bilan, Izanagining ko'nglini chulg'ab olgan alam va sog'inch tuyg'ulari uni Izanamini qidirib Yomiga borishiga boshlaydi. Nihoyat, Yomida u Izanamini qayta uchratadi. Atrofda zarracha nur va yorug'lik bo'lmagani sababli, Izanaming yuzi ko'rinmas, lekin shunday bo'lsa ham Izanagi uni juda yaxshi tanirdi. Visol onlarida Izanagi suyukli hamrohidan, u bilan yana birga yorug'lik dunyosida bo'lishini so'raydi va afsuski rad javobini oladi. Chunki, Izanami o'liklar dunyosida tayyorlangan taomlardan yeb qo'ygan bo'ladi¹¹. Izanagining o'ta qaysar va matonatli shaxsiyati unga o'z yori, muhabbatidan voz kechishiga yo'l qo'ymaydi. Uzoq vaqt o'tgan tortishuvlardan so'ng esa Izanami yana yerga qaytishga va umr yo'ldoshi bilan yana hayot qurishga rozi bo'ladi. Faqat, o'zining Yomidagi xonasida xohlaganicha uxlab, dam olib olish va bu jarayonda Izanami uning ortidan kelmasligi, poylamasligi shartlari evaziga. Sulh tuzildi, hammasi ajoyib edi, vaqt o'ta boshladi. Izanagi o'zining qiziqqonligini nazorat qila olmagan sababli Izanaming xonasi tomon yo'l oldi. Borgach qarasa, xona zulmatda cho'mgan, bir zarrachalik ham yorug'lik nuri ko'rinmasdi, yerda yotgan bir sharpadan boshqa. Izanagi yotgan sharpa Izanamiga tegishliligini bilardi, ammo hech ishonch hosil qila olmadi. Sochining chap tomoniga qistirilgan tarog'ini oldi va uning tishlarini olov orqali yoqib, sham o'laroq yorug'lik yaratdi. Ana shu ondayoq, hamma narsa u uchun o'zgarib ketdi, ko'rayotgan va bir paytlar guvohi bo'lgan narsalari ko'z oldidan shu qadar tez o'tardiki, qotib qoldi. Avvalgi o'rinda esa go'zallikda tengsiz bo'lgan Izanami o'rnida, chirib ketayotgan, orasidan qurt-qumursqalar va boshqa yoqimsiz mavjudotlar o'rmalab chiqayotgan, chidab bo'lmas darajada yoqimsiz hid taratayotgan go'sht bo'laklarini ko'rdi. Ularning orasidan hattoki po'kaklashib qurib qolayotgan suyaklar ham terini yirtib chiqqan, ko'rinishi juda ayanchli edi. Yorug' nur va qo'rqinch tovushlarini eshitgan Izanami darhol uyqudan uyg'onib ketdi va alamzadalik, oh nolalari uni o'z girdobiga tortdi. Quloqlarni qomatga keltiradigan darajada baland ovozda baqirar, uni faqat tiriklar olamida go'zalligi va ulug'vorligi uchun sevgan, u uchun oshiq bo'lgan yori uning qarshisida va'dasini buzib turganidan g'azablanib yig'lar edi. Izanagi o'rnidan turdi va yer osti o'liklar dunyosi la'natlarining eng vahimali ayol ko'rinishidagi arvohi *Shikome* (醜女, しこめ)¹² ni chaqirdi va unga Izanagini tutib, parcha- parcha qilishni buyurdi. Nima qilarini bilmay qolgan Izanagi yugurardi, va tezroq bu Yomi olamidan chiqib ketish ilinjida marhumlar dunyosining ulkan darvozalarini axtarardi. Shikome unga juda yaqin kelib qolgani sababli, u o'z bosh kiyimini ortga tomon irg'itdi va g'ayritabiiy kuch ta'sirida boshkiyim uzumga aylanib qoldi. To'xtab, uzumni yeganligi sababli Shikome ortda qoldi, va hanuz Izanagi panoh qidirardi. Qo'lga tushish holati yana yaqinlashganida, u haligi olov yoqqan tarog'idan qolgan tishchalarni Shikome tomon mohirlik bilan irg'ita boshladi. Uchlari xudolar kuchi bilan sehrlangan bu taroq tishlari, nishoniga yaqin borgani sari o'tkirlashar va unga tegar chog'i uzun bambuk shoxlariga

¹¹ <https://www.nippon.com/en/japan-topics/b11202/>

¹² **Shikome** — Yapon mifologiyasida uchraydigan **qo'rqinchli ayol jonzod** yoki **ayol arvoh**, ko'pincha **Yomi (o'liklar dunyosi)** bilan bog'langan. Nafrat, ajralish, o'limning dahshatli yuzini ko'rsatadi

Date: 23rd June-2026



aylanardi. Vanihoyat, ular Shikomening tanasiga sanchildi. Uch dona bo`lishiga qaramasdan bambuk shoxlari Shikomening tanasini ilma-teshik qildi, har qanday jarohat o`ta xavfli bo`lishi mumkin edi. Lekin, butun la`natlar sohibi bo`lgan, Yomi olamining yangi qo`riqchisi Izanamining qo`l ostidagi bu maxluqot shunchaki yo`q bo`lmasdi. Uning tanasi xuddiki xudolarning muqaddas xohishiga ko`ra tuzalganday, yana asl holatiga qaytdi. Ongsiz bu mavjudot endi shu bambuk shoxlarini ham yeb, naf qondirish dardida bo`layotgan bir paytda, Izanagi yer osti dunyosi darvozalari tomon yaqinlashayotgandi. Hayot uchun kurash, Shikome Izanagiga ayni yetay deb qolganda yana avjlandi. Izanagi qochayotganda duch kelgan daraxtdan uzib olgan shaftoli mevalari u uchun oxirgi haloskor bo`lishi bilardi. U o`sha shaftolilarni ham hayotiga xavf solayotgan bu maxluq tomon otdi va undan vanihoyat xalos bo`ldi. O`liklar olami darvozasiga yetib kelib undan o`tishi bilanoq, Izanagi g`or og`zini ulkan xarsangtosh bilan bekitdi. Ayni shu damda g`or og`zida Izanami paydo bo`ldi va eng oxirgi so`zlarini aytib qoldi. Barcha boshdan kechirgan qiyinchiliklari ,umidsizliklari va azob-uqubatlari sababchi deb hisoblagan Izanagidan qasos olishga, va har kuni *quyosh chiqar o`lka*(日本)<sup>13</sup>da 1000 kishining jonini olishga ont ichdi. Bunga javob tariqasida Izanagi bu o`lkada 1500 kishiga har kuni yangi va go`zal hayot ato qilishga ahd qildi va yorug`lik yurtiga qaytib ketdi.

Tozalanish va xudolik tartibi: Harai marosimi va yangi xudolar

Uyga qaytgach, o`zini o`liklar dunyosi sarqitlaridan, barcha yomonlik asoratlaridan tozalash va yangi mukammal hayotga qadam qo`yish maqsadida , issiq buloqda o`zini pokladi. Bu jarayonda , uning o`ng ko`zidan yuvilib oqib tushayotgan muqaddas suvdan *Amaterasu* (天照大神 / あまてらす おおみかみ)¹⁴ dunyoga keldi. Xuddi shunday, chap ko`zidan oqayotgan suvdan *Tsukuyomi* (月読命 / つくよみのみこと)<sup>15</sup> yaraldi. Burnini yuvib tushayotgan suv tomchilari esa, yerga tushishi bilanoq, *Susanoo* (須佐之男命 / スサノオノミコト)<sup>16</sup>ga hayot in`om etdi. Bundan tashqari, o`zining kir va yirtilib ketgan kiyimlarini daryoga tashlaganida , 12 bo`lagidan 12 ta yangi xudolar tug`ildi.

Hammasi o`z o`rniga tushganidan keyin esa, Izanagi tiriklar dunyosini uch qismga bo`ldi, Amaterasuga kunduz kungi, Tsukuyomiga esa tun paytidagi hokimiyatni topshirdi. Susanoo esa, jamiki suv manbalari, dengizlar va ummonlar ustidan oliy qudratga ega bo`ldi va ularni nazorat qilish vazifasi bilan yuklatildi. Afsonalarga ko`ra, Izanagi

¹³ 日本 – Yaponiya so`zining iyeroglif(kanji) orqali yozilishi.Nihon yoki Nipon tarzida o`qiladi va “Quyosh chiqadigan o`lka” degan ma`noni anglatadi.

¹⁴ Amaterasu — yorug`lik, quyosh va hayot ma`budasi. Yapon imperatorlari o`zlarining nasl-nasabini aynan Amaterasudan boshlab, o`zlarini ilohiy avlod deb bilishadi. Shu sababli u imperatorlik sulolasining ajdodi sifatida ham muhim o`rin tutadi.

¹⁵ Tsukuyomi— Yapon mifologiyasidagi oy xudosi, Amaterasuning (quyosh ma`budasi) akasi yoki ukasi sifatida tanilgan.

¹⁶ Susanoo — Yapon mifologiyasidagi kuchli va g`azabli bo`ron, dengiz, tozalash va qahramonlik xudosi.

Date: 23rd June-2026

poklangan hammom, Shinto dinidagi benuqson va zaruriy poklanish amali *Harai* (祓い / はらい)¹⁷ nomi bilan tarixda qoldi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan Yaponiyaning yaratilish afsonasi Shinto dini doirasida faqat diniy emas, balki madaniy, axloqiy va estetik qadriyatlarning uzviy ifodasidir. Ushbu afsonada Yaponiyaning ilohiy kelib chiqishi, tabiat hodisalari va insoniy tuyg'ularning yuksak timsoli ko'rinadi. Izanagining Yomi olamiga sayohati orqali o'lim va hayot, yorug'lik va zulmat, muhabbat va xiyonat o'rtasidagi doimiy kurash falsafiy darajada ochib beriladi. Shu bilan birga, Harai marosimi va yangi xudolarning dunyoga kelishi orqali poklanish, muqaddaslik va diniy tartiblar yapon xalqining ruhiy hayotida qanday chuqur o'rin tutishini ko'rish mumkin. Maqola davomida Shinto e'tiqodi asosidagi yaratilish konsepsiyasi orqali yaponlarning olam haqidagi qarashlari, tabiatga va ilohiy kuchlarga bo'lgan hurmati chuqur tahlil qilindi. Bu afsona nafaqat diniy-falsafiy manba, balki yapon xalqining ma'naviy o'zligiga asos bo'lgan timsollar majmuasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.britannica.com/topic/Izanagi>
2. <https://japanthis.com/2020/06/22/the-japanese-creation-myth/>
3. https://canadianstudies.isp.msu.edu/news_article/22292
4. <https://jamesbishopblog.com/2022/06/05/a-summary-of-the-kojikis-creation-myth-and-the-story-of-izanagi-and-izanami/>
5. <https://www.youtube.com/watch?v=AraMp0n2wgs>
6. Matsumae T. Origin and Growth of the Worship of Amaterasu, Asian Folklore Studies
7. Lewis S. *Japan Encyclopedia*, Harvard University Press

¹⁷ *Harai*— bu **Shinto dinidagi tozalash marosimi** bo'lib, **yomonlik, najosat (kegare), baxtsizlik yoki ruhiy ifloslikni** yo'q qilish uchun bajariladi. Bu so'z "tozalash", "yuvish" yoki "jo qilish" degan ma'nolarni anglatadi.